e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper *https://doi.org/10.67227/qqvrcw36*

BUXORO VILOYATIDA YO‘LOVCHI TASHISH XIZMATI VA UNDAGI O‘ZGARISHLAR (1991–2008-YILLAR)

Salimova Zulfizarxonim Halim qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti, doktorant.
e-mail: salimovazulfizarxonim@gmail.com **ORCID:** https://orcid.org/0009-0001-5523-9161

Annotatsiya.
Mazkur maqolada Buxoro viloyatida yo‘lovchi tashish transportining turlari va ularning O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridagi holati, aholiga avtotransport xizmatlarini ko‘rsatishda mavjud bo‘lgan kamchiliklar hamda sohada amalga oshirilgan islohotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, yo‘lovchi tashish tizimidagi xususiylashtirish jarayonlari, transport xizmatlarini tashkil etishdagi o‘zgarishlar va raqobat muhitining shakllanishi masalalari yoritiladi. 1991–2008-yillarda viloyat transport tizimida yuz bergan o‘zgarishlarning aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta’siri tarixiy nuqtayi nazardan ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: avtobus, trolleybus, yo‘lovchi, yo‘nalish, haydovchi, tender, tarif, xususiylashtirish, raqobat, avtokorxona, litsenziya, “Buxorotrans”.

ПАССАЖИРСКИЕ ПЕРЕВОЗКИ И ИЗМЕНЕНИЯ В СИСТЕМЕ ТРАНСПОРТНОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ (1991–2008 ГГ.)

Салимова Зульфизархоним Халим кизи
Бухарский государственный педагогический институт, докторант.

Аннотация.
В статье анализируются виды пассажирского транспорта Бухарской области и их состояние в первые годы независимости Узбекистана, существовавшие недостатки в сфере автотранспортного обслуживания населения, а также реформы, осуществлённые в данной отрасли. Рассматриваются процессы приватизации в системе пассажирских перевозок, изменения в организации транспортных услуг и формирование конкурентной среды. С исторической точки зрения исследуется влияние преобразований, происходивших в транспортной системе области в 1991–2008 годах, на социально-экономическую жизнь населения.

Ключевые слова: автобус, троллейбус, пассажир, маршрут, водитель, тендер, тариф, приватизация, конкуренция, автотранспортное предприятие, лицензия, «Бухоротранс».

PASSENGER TRANSPORT SERVICES AND CHANGES IN THE TRANSPORTATION SYSTEM OF BUKHARA REGION (1991–2008)

Salimova Zulfizarxonim Halim qizi
Bukhara State Pedagogical Institute, Doctoral Student.

Abstract.
This article analyzes the types of passenger transport in Bukhara Region and their condition during the early years of Uzbekistan’s independence, shortcomings in the provision of road transport services to the population, and reforms implemented in the sector. It examines privatization processes within the passenger transportation system, changes in the organization of transport services, and the emergence of a competitive environment. From a historical perspective, the article explores the impact of transformations in the region’s transportation system between 1991 and 2008 on the socio-economic life of the population.

Keywords: bus, trolleybus, passenger, route, driver, tender, fare, privatization, competition, motor transport enterprise, license, Buxorotrans.

Kirish. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakatning barcha sohalarida bo‘lgani kabi transport tizimida ham salmoqli o‘zgarishlar ro‘y berdi. O‘zbekiston transport tizimida muhim strategik o‘rinni egallagan Buxoro viloyatida ham transport sohasida, xususan, yo‘lovchi tashish xizmatida mavjud muammolarni bartaraf etish va tizimni isloh qilish dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

Bu muammolar avtobus parkidagi transport vositalarining eskirishi, yangi transport yo‘nalishlarini ochish zarurati, avtotransport parklari texnik holatining qoniqarsizligi, korxonalarning moddiy-texnik bazasini yangilash kabi masalalarda o‘z aksini topgan. Bundan tashqari, Buxoro shahridagi trolleybus transportining faoliyati va uni rivojlantirish bilan bog‘liq masalalar ham shahar transport tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etgan. Bu davr Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim bosqich bo‘lib, unda sovet davridan meros bo‘lib qolgan

transport sohasidagi kamchiliklarni bartaraf etish, respublikada transport sohasidagi islohotlarning Buxoro viloyatidagi amaliy ko‘rinishi, transport korxonalarining faoliyati, yo‘nalishlar tarmog‘ining o‘zgarishi, shahar va shahar atrofi yo‘lovchi tashish tizimidagi muammolar hamda bu jarayonlarning aholining ijtimoiy hayotiga ta’sirini hududiy-tarixiy nuqtayi nazardan o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Mustaqillik davri O‘zbekiston transport tizimi tarixi bo‘yicha bir nechta tadqiqotlar olib borilgan. U. X. Gulmatov, F. B. Jumaniyozov, N. Z. Hayotovaning ishlari shular jumlasidandir. Xususan, U. X. Gulmatov O‘zbekiston Respublikasida 1991–2023-yillarda transport tizimi borasidagi davlat siyosati va uning natijalari, transport infratuzilmasi bilan bog‘liq o‘zgarishlarni temir yo‘l, avtomobil va havo transporti misolida ochib bergan [1]. F. B. Jumaniyozov Xorazmda 1873–2018-yillarda transport vositalari va tarmoqlarining rivojlanishini hamda transport infratuzilmasi sohasidagi o‘zgarishlar dinamikasini tadqiq qilgan [2]. N. Z. Hayotova XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Buxoroda zamonaviy shahar madaniyatining shakllanish va rivojlanish bosqichlari, transformatsiyasi, logistika tizimini rivojlantirish masalalarini tadqiq qilgan [3]. Biroq mavjud tadqiqotlarda Buxoro viloyati transport tizimi, xususan, yo‘lovchi tashish tizimi tarixi kompleks tarzda tadqiq etilmagan. Oldingi tadqiqotlardan farqli ravishda mazkur maqola Buxoro viloyatida yo‘lovchi tashish xizmati va uning turlari, avtokorxonalar faoliyati, sohadagi xususiylashtirish jarayoni, tumanlararo yo‘lovchi tashish xizmati va undagi muammolarni yoritishi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z taraqqiyot yo‘lini tanlagandan so‘ng, mamlakat oldida barcha ijtimoiy-iqtisodiy tarmoqlarni inqiroz holatidan olib chiqish, mavjud muammolarni bartaraf etish hamda bu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirish vazifasi turar edi. Buxoro viloyatida ham mustaqillikning dastlabki yillarida transport sohasida, xususan, aholiga yo‘lovchi tashish xizmatlarini ko‘rsatish tarmog‘ida qator muammolar mavjud bo‘lib, aholining transport xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda edi. 1993-yil 20-fevralda bo‘lib o‘tgan viloyat faollari yig‘ilishida Buxoro shahrida yo‘lovchi tashuvchi avtotransport vositalarining jadval asosida qatnamayotganligi, ayniqsa, kechki vaqtlarda ushbu kamchiliklarga yo‘l qo‘yilayotganligi tanqid qilingan edi. Mazkur holat viloyatda yo‘lovchi tashish xizmati ustidan nazoratning susayganligi va bu sohada jiddiy muammolar borligini ko‘rsatadi.

Yo‘lovchi tashish sohasidagi bunday muammolar, avvalo, mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakat iqtisodiyotida vujudga kelgan qiyinchiliklar bilan bog‘liq edi. Mavjud avtotransport vositalarining eskirganligi, ehtiyot qismlar va yoqilg‘i muammolari, avtokorxonalarning moddiy-texnik bazasi yetarlicha rivojlanmaganligi kabi muammolar transport xizmatining barqaror faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Buning natijasida avtobuslarning kechikishi va bekatlarda yo‘lovchilarning uzoq muddat kutib qolish holatlari kuzatilgan. Xususan, viloyat davlat soliq boshqarmasi 1993-yil 8–9-fevral kunlari o‘tkazgan tekshirishda avtobuslar yetishmaganligi sababli Markaziy avtovokzalda yo‘lovchilar 4–5 soatlab avtobuslarni kutganlar. Shu kunlari jadval bo‘yicha 55 ta avtobus o‘rniga reysga 16 ta avtobus chiqqan bo‘lib, bu kunlik jadvalning 29 foizini tashkil qilgan [4]. Bunday holatlarning ko‘plab sodir bo‘lishi yo‘lovchi tashish sohasidagi muammolarni bartaraf etish dolzarb masalaga aylanganligini ko‘rsatar edi.

Bundan tashqari, Buxoro shahrida 1986-yildan buyon mavjud bo‘lgan trolleybus tarmog‘ida ham qator kamchiliklar ko‘zga tashlangan. Bu muammolarni bartaraf etish maqsadida hukumat tomonidan bir qancha chora-tadbirlar ko‘rilgan. Jumladan, 1995-yilda Buxoro shahrida trolleybus xizmatini yaxshilash maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilgan:

- 4,0 km yangi trolleybus tarmoq yo‘llari qurilib, foydalanishga topshirilgan;
- trolleybusdan foydalanish rejasi 116 foizga bajarilgan [5].

Biroq ushbu davrda trolleybus parkining texnik jihatdan eskirganligi, trolleybus korxonalarining moddiy jihatdan o‘zini o‘zi qoplay olmasligi natijasida bu tarmoqning rivojlanishi sust kechgan va hatto kerakli ehtiyot qismlarni sotib olish ham muammoga aylangan edi. Natijada trolleybus xizmatidan tushadigan tushumlar ham kamayib, korxonalarning elektr energiyasidan qarzdorligi ortib borgan. Jumladan, 1997-yilning 8 oyi mobaynida Buxoro trolleybus boshqarmasi aholiga xizmat ko‘rsatish hajmini 1996-yilning shu davriga nisbatan 2,5 mln so‘mga yoki 29 foizga kamaytirgan. Agar 1996-yilning oktabrida aholiga 24 ta trolleybus xizmat ko‘rsatgan bo‘lsa, 1997-yilning sentabr oyida ularning soni atigi 3 tani tashkil etgan [6].

Davriy matbuot materiallarida trolleybus yo‘nalishining rekonstruksiya qilinishi va hukumat tomonidan ko‘rilgan amaliy tadbirlar haqida ma’lumotlar uchraydi. Buxoro shahrida qatnovni yaxshilash uchun 32,2 kilometr uzunlikdagi yo‘nalishning to‘rtdan uch qismi yangilangani, shuningdek, Toshkent shahar trolleybus boshqarmasidan ta’mirlangan 5 ta trolleybus sotib olingani va mazkur tadbirlar uchun davlat budjetidan 37 million so‘m sarflangani qayd etilgan [7].

Umuman olganda, Buxoro viloyatidagi yo‘lovchi tashish tizimi texnik hamda iqtisodiy muammolar ta’sirida faoliyat yuritdi. Ayniqsa, trolleybus tizimida mavjud transport vositalarining texnik jihatdan eskirganligi hamda moliyaviy qiyinchiliklar tizim rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Hukumat tomonidan bu sohani rivojlantirishga doir chora-tadbirlar ko‘rilganligiga qaramay, ularning yetarli darajada samara bermaganligi yo‘lovchi tashish tizimini tubdan qayta tashkil etish, xizmat ko‘rsatishning yangi shakllarini joriy etish zaruratini yuzaga keltirdi.

1990-yillardagi ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv shakli mustaqil davlat sifatida bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tayotgan O‘zbekiston aholisining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlariga mos kelmay, iqtisodiy sohalarda yangi bosqichdagi islohotlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirdi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 26-noyabrdagi 513-sonli “O‘zbekiston Respublikasida shahar yo‘lovchi transportini rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi [8] hamda 2003-yil 21-avgustdagi 360-sonli “Transport sohasidagi faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi [9] qarorlari Buxoro viloyatida yo‘lovchi tashish tizimini takomillashtirish, sohada bozor munosabatlari tamoyillarini joriy etish, xususiy tashuvchilar o‘rtasida raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qildi.

ISSN 3060-5059 (Online)

Aholiga ko‘rsatilayotgan transport xizmatlarini yaxshilash hamda transport sohasida raqobat muhitini vujudga keltirishda ochiq tenderlarning joriy etilishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 17-avgustdagi 350-sonli “Shahar yo‘lovchi tashish transportida tenderlarni tashkil etish va ularni o‘tkazish masalalari to‘g‘risida”gi qarori asosida viloyat va shahar komissiyalari tuzilgan. Ushbu qaror transport xizmatida raqobat muhitini yaratishda tashkiliy va huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi.

2000-yil 1-sentabrda Buxoro viloyati monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish hududiy boshqarmasi tomonidan viloyat hokimi o‘rinbosariga taqdim etilgan tahliliy ma’lumotda 1999–2000-yillarning 6 oyi davomida jami 35 ta shahar marshrutining barchasi tenderga qo‘yilib, 16 ta yo‘nalishda xususiy tashuvchilar va 19 tasida “Buxorotrans” hissadorlik jamiyati g‘olib deb topilgan. Ushbu raqamlar asosida transport xizmatlari bozorida sog‘lom raqobat vujudga kelishiga erishilganini ko‘rish mumkin. Buning natijasida “Buxoro taksomotor saroyi” boshqarma tomonidan yo‘nalishli taksi xizmati bo‘yicha monopol mavqega ega deb tan olingan bo‘lsa-da, 1999-yil 17-dekabrda ushbu xizmat bozorida sog‘lom raqobat muhiti yaratilishi natijasida monopol korxonalar davlat reyestridan chiqarilgan. Mazkur holat Buxoro transport xizmatlari bozorida monopol mavqening qisqarayotganligi va xususiy sektorning o‘sishidan dalolat beradi.

Ushbu davrda “Buxorotrans” avtokorxonalari bilan bir qatorda “Damas” firmasi, “Movarounnahr” MChJ, “SHAX”, “Lochin-2000”, “Rohi-Safed”, “Miru-Madad” kabi assotsiatsiyalar tomonidan xizmat haqi davlat korxonalariga nisbatan 10–20 foiz past darajada belgilangan. Masalan, “Buxorotrans” hissadorlik jamiyati avtokorxonalarining yo‘lovchi tashish uchun xizmat haqi 2000-yilda har bir kilometr uchun 5 so‘m miqdorida belgilangan bo‘lib, Buxoro – Olot yo‘nalishida 350 so‘m, Buxoro – Qorako‘l yo‘nalishida 305 so‘m, Buxoro – G‘ijduvon yo‘nalishida esa 225 so‘m miqdorida belgilangan. Kira haqi avtobusda Buxoro – Qorako‘l yo‘nalishida 305 so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, tadbirkorlar tomonidan 250 so‘m miqdorida belgilanib, xizmat ko‘rsatilgan. Ammo bu yo‘nalishda ikki turdagi yo‘lovchi tashish transporti tomonidan sifatli xizmat ko‘rsatilishi o‘rniga yo‘lovchilar uchun noqulayliklar yaratilgan.

Shu bilan bir qatorda, transport tizimiga xususiy korxonalarning kirib kelishi sog‘lom raqobat muhitini yaratganligiga qaramay, aholiga sifatli xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq muammolar mavjud edi. Bu holat, ayniqsa, aholi gavjum bo‘lgan shahar va tumanlarda yaqqol ko‘zga tashlangan. Mazkur holat tashish jarayonlarining aniq bir tartibda olib borilmaganligidan dalolat beradi.

Masalan, 2000-yilda Buxoro – Olot yo‘nalishida, birinchidan, xususiy transport egalari belgilangan jadvalga rioya qilmasdan, yo‘lovchilar soni 10 nafarga yetgandan keyingina jo‘nab ketgan. Natijada jadval asosida qatnaydigan “Buxorotrans” avtobuslari yo‘lovchilar kamligi sababli jadval asosida qatnash imkoniyatidan mahrum bo‘lib, bosh bekatda turib qolgan. Ikkinchidan, xususiy tashuvchilarning ayrimlari oraliq bekatlarda to‘xtamagan va yo‘lovchilardan to‘liq yo‘nalish tarifi undirilgan. Imtiyozli yo‘lovchilar manfaatlari hamisha ham hisobga olinmagani transport xizmatining sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan [10].

Xususiy tashuvchilarning aholiga ko‘rsatayotgan xizmati xususida davriy matbuot materiallarida ham ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, “Buxoronoma” gazetasida I. Ibrohimov tomonidan yoritilgan “Chorbakr – Buxoro shahri” yo‘nalishi bilan bog‘liq holat transport sohasidagi raqobatning amaliy ko‘rinishiga misol bo‘la oladi. 2002-yilda shirkat aholisining shahar markaziga qatnovchi marshrut taksi xizmatini yo‘lga qo‘yish talabi yuzasidan shahar hokimining tegishli farmoni asosida 59-yo‘nalishli taksi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Bu holat, bir tomondan, qishloq aholisining transportga bo‘lgan ehtiyojini qondirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, transport xizmatidagi raqobatni yaqqol namoyon etgan. Biroq yangi yo‘nalishning tashkil etilishi ayrim xususiy tashuvchilarning qarshiligiga sabab bo‘lgan. Atigi 8–9 kilometrlik masofaga qatnab, har bir yo‘lovchidan 100 so‘mdan olayotgan “Damas” haydovchilari 59-marshrut taksilari ishiga to‘g‘anoq bo‘la boshlagan. 2002-yil 1-martda Buxoro tumani ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i hamda viloyat va tuman davlat soliq nazorati idoralari vakillari ishtirokida o‘tgan yig‘inda “Damas” haydovchilarining 59-marshrut taksichilari faoliyatiga xalaqit berishlari noto‘g‘riligi va qonunga zidligi alohida ta’kidlangan. Mazkur holat transport xizmatlari bozorida davlatning jarayonlarni tartibga solish va raqobatni himoya qilishdagi rolini ko‘rsatib turibdi.

Bu davrdagi yana bir dolzarb masala shahar va shahar atrofi yo‘nalishlari o‘rtasidagi tafovut edi. Ya’ni shahar ichida xizmat ko‘rsatuvchi marshrutlar nihoyatda ko‘pligi, qishloqlarni viloyat markazi bilan bog‘lovchi marshrut taksilarning esa kamligi natijasida litsenziyaga ega bo‘lmagan, davlat soliq nazorati idoralari tomonidan nazoratdan o‘tmagan transport vositalari haydovchilarining ko‘ngli tusagan narxni belgilash holatlari yuz bergan. Zero, “Shahar yo‘lovchi tashish transporti haqida”gi Qonunga (1997-yil) ko‘ra, yo‘lovchi tashuvchi barcha transport vositalari haydovchilari litsenziya olishlari shart bo‘lgan [11].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2003-yilda qabul qilingan “Transport sohasidagi faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi qarorga ko‘ra, transportning barcha turlari, jumladan, avtomobil transportida yo‘lovchilar va yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo‘nalishlar bo‘yicha tashish faoliyatini litsenziyalash hamda litsenziyalar berilganligi uchun davlat bojlari miqdorlari to‘g‘risidagi nizomlar amalga kiritilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, transport xizmatlari bozorida litsenziyalash masalasi yo‘lovchi tashish tizimini tartibga soluvchi muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Biroq Buxoro viloyatida litsenziyalash bilan bog‘liq muammolar ko‘zga tashlangan. 2003-yilda turli mulkchilik shakllariga mansub transport vositalarining atigi 34–35 foizi tegishli litsenziyaga ega bo‘lib, Olot avtojamlanmasi, Shofirkondagi 60-, Vobkentdagi 137-avtokorxonalar, Buxoro shahridagi TEA litsenziyasiz faoliyat ko‘rsatgan [12]. Bu muammoni bartaraf etish maqsadida bir qancha chora-tadbirlar ko‘rilgan. 2004-yil 13-fevralda Vobkent tumani hokimi tomonidan tuman hokimligi huzurida yo‘lovchi tashish transportini tartibga solish va uni boshqarishni tashkil etish uchun Transport departamentini [13] tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilingan.

Shunday qilib, 1990-yillarning oxiri – 2000-yillarning boshidagi xususiylashtirish jarayonlari, bir tomondan, transport xizmatlari bozorida raqobatni kuchaytirgan bo‘lsa, boshqa tomondan, aholiga ko‘rsatiladigan transport

xizmatlarida xilma-xillikni hamda aholining noroziligiga sabab bo‘ladigan holatlarni keltirib chiqardi. Bundan tashqari, bu davr xizmat sifatini nazorat qilish, qatnovlarni tartibga solish va litsenziyalash kabi muammolar yuzaga chiqqan murakkab davr bo‘ldi.

Viloyatda yo‘lovchi tashish tizimida transport tariflarini belgilashga ham alohida e’tibor qaratildi. Xususan, 2005-yil 18-martda o‘tkazilgan viloyat aholisiga avtotransport xizmati ko‘rsatishni tubdan yaxshilash dasturi bajarilishining holati bo‘yicha yig‘ilish doirasida yo‘lovchi tashish yo‘nalishlarida belgilangan yo‘l haqi miqdorini foyda va xarajat elementlarini hisobga olgan holda qayta ko‘rib chiqish vazifasi belgilangan edi. Shuningdek, Buxoro shahridagi mikroavtobus yo‘nalishlarida 75 so‘mlik yo‘l haqi belgilash masalasi [14] ko‘rib chiqilgan. Bu kabi tadbirlarni tizimning barqaror faoliyat yuritishini ta’minlash va korxonalarning moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishining oldini olishga qaratilgan choralar sifatida ham baholash mumkin.

Viloyat hokimining 2007-yil 19-sentabrdagi 269-sonli “Viloyatda umumiy foydalaniladigan yo‘lovchilar tashish avtomobil transporti uchun tariflarni belgilash to‘g‘risida”gi qaroriga asosan, shahar atrofi va viloyat ichidagi shaharlararo mikroavtobus yo‘nalishlarida 2007-yil 20-sentabrdan yo‘lovchi tashish transporti xizmatlari uchun yo‘l haqi tarifi bir yo‘lovchining bir kilometr masofaga qatnovi uchun 1–25 km gacha bo‘lgan masofaga 22,5 so‘m, 25 km dan ortiq bo‘lgan masofaga 18 so‘m qilib belgilangan. Bu davrda daromad va xarajatlar teng taqsimlanib, haydovchilar va boshqaruv xodimlarining oylik ish haqi oshirilganini ko‘rishimiz mumkin.

2008-yil noyabr oyidan shahar atrofi va viloyat ichidagi shaharlararo mikroavtobus yo‘nalishlarida yo‘lovchi tashish transporti xizmatlari yo‘l haqi tarifini shakllantiruvchi xarajatlar kalkulyatsiyasi o‘tgan yilga nisbatan o‘rtacha 25 foizga oshgan. Jumladan, eng kam oylik ish haqi miqdori 2007-yil 20-sentabr holatiga ko‘ra 15 525 so‘mni, 2007-yil 16-noyabrdan 18 630 so‘mni, 2008-yil apreldan 20 865 so‘mni, 2008-yil 1-sentabrdan 25 040 so‘mni tashkil qilgan, ya’ni haydovchilar va boshqaruv xodimlarining ish haqi miqdori o‘tgan yilga nisbatan 61,3 foizga oshgan.

Yo‘l kira haqi miqdorini aniq hisoblashda davlat tomonidan bir qancha muhim jihatlar hisobga olingan. Jumladan, narxlar inflyatsiyasi darajasiga qarab, mikroavtobuslarga texnik xizmat ko‘rsatish va avtoshinalar olish xarajatlarining o‘tgan yilga nisbatan 20 foizgacha oshishi hisobga olingan. Bundan tashqari, oylik ish haqi miqdori, yoqilg‘i va moylash mahsulotlari hamda avtomashina ehtiyot qismlari narxlari oshganligini hisobga olib, shahar atrofi va viloyat ichidagi shaharlararo mikroavtobus yo‘nalishlari uchun bir yo‘lovchining bir kilometr masofaga qatnovi uchun yo‘l kira haqi 2008-yil noyabr oyidan 1–25 km gacha bo‘lgan masofaga 28 so‘m, 25 km dan ortiq bo‘lgan masofaga 23 so‘m [15] qilib belgilangan. Yagona tarif siyosatidagi bu o‘zgarishlar transport xizmatlarining aholiga maqbul bo‘lishini ta’minlagan.

2006–2008-yillarda aholiga ko‘rsatiladigan transport xizmatlarini takomillashtirish, yo‘lovchi tashish faoliyatini tizimli ravishda tartibga solish, transport xizmatlari xavfsizligini ta’minlash maqsadida hukumatimiz tomonidan bir qancha qarorlar qabul qilingan. Bunda, bir tomondan, globallashuv jarayonida transport xizmatlari tizimini jahon standartlari darajasiga olib chiqish maqsad qilingan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, aholining murojaatlari va shikoyatlari asosida ham mavjud muammolar o‘rganilib, bartaraf etilgan.

Jumladan, 2006-yilda lizing asosida 12 ta yangi avtobus keltirilib, ularning soni 37 taga yetkazilgan. Bundan tashqari, tadbirkorlar mablag‘lari hisobidan 80 ta yangi mikroavtobus xarid qilinib, yo‘nalishlarga kiritilgan bo‘lsa, 137 ta yo‘nalish bo‘yicha tenderlar o‘tkazilib, 120 ta eski va zamon talablariga javob bermaydigan transport vositasi yo‘nalishlardan chetlashtirilgan. Mahalliy hokimiyatlar va fuqarolarning takliflarini inobatga olgan holda 22 ta yangi yo‘nalish ochilgan va bu ishlarni 2007-yilda ham qat’iyat bilan davom ettirish rejalashtirilgan.

Transport tizimida tenderlarning o‘tkazilishi bir qancha muammolarga sabab bo‘lgan holatlar ham kuzatilgan. Ayrim mansabdor shaxslarning tender jarayonlaridan o‘z shaxsiy manfaatlari yo‘lida foydalanishga urinish holatlari arxiv ma’lumotlarida keltirilgan. Xususan, Buxoro viloyati prokurori vazifasini bajaruvchi J. R. Nizomovning 2006-yil 27-dekabr kuni xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyasidagi ma’ruzasida Olot tumani hokimligi huzuridagi Olot transport departamenti boshlig‘i Ismoil Azimov tumandagi “Oydin” xususiy firmasining “Olot – Bojxona” yo‘nalishi bo‘yicha yo‘lovchi tashish yengil transportlari tanlovida tender g‘olibi bo‘lishini ta’minlash evaziga firma rahbari Sodiq Niyozovdan 2000 AQSh dollarini pora tariqasida olayotgan vaqtida jinoyat ustida ushlangani qayd etilgan. Mazkur holat yuzasidan Ismoil Azimovga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 210-moddasi 2-qismi bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atilib, dastlabki tergov yakuni bo‘yicha ish sud muhokamasiga yuborilgan. Jazo muqarrarligi ta’minlangan [16].

Hududda transport tizimini modernizatsiya qilish maqsadida viloyat hokimi tomonidan 2007-yilda viloyat aholisiga transport xizmati ko‘rsatishni yanada yaxshilash dasturi qabul qilingan va ushbu dastur doirasida bank kreditlari hisobidan qo‘shimcha 25 ta yangi avtobus olib kelingan. Yo‘lovchi tashish yo‘nalishlarida faoliyat ko‘rsatayotgan transport vositalari xatlovdan o‘tkazilib, texnik va ma’naviy jihatdan eskirgan 12 ta avtobus va 107 ta mittiavtobus yo‘nalishlardan chiqarilgan. Mazkur tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida viloyat aholisiga transport xizmati ko‘rsatish ancha yaxshilanib, yo‘lovchi tashish tizimining moddiy-texnik bazasi mustahkamlangan.

2008-yilda ham mazkur yo‘nalishdagi ishlarni davom ettirish maqsadida “Viloyat aholisiga transport xizmati ko‘rsatishning 2008-yilgi dasturi” ishlab chiqilgan. Dastur 2007-yilda olib borilgan ishlarning davomi sifatida aholiga ko‘rsatiladigan transport xizmatini yaxshilash, yangi yo‘nalishlar ochish, bekatlarni tartibga solish singari vazifalarni qamrab olgan. Biroq dastur ijrosini ta’minlashda bir qator xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan. Jumladan, Jondor va G‘ijduvon tumanlarida bosh bekatlarni qurish hamda Olot va Qorovulbozor tumanlaridagi bosh bekatlar faoliyatini tiklash tadbirlari bajarilmagan va joylardagi komissiyalar tomonidan transport xizmati bo‘yicha pul tushumi masalasida e’tiborsizlikka yo‘l qo‘yilgan. Bundan tashqari, Buxoro shahri va G‘ijduvon tumanida yuk tashuvchi avtotransport vositalari uchun noqonuniy tashkil etilgan turargohlarni qonuniylashtirish va har bir turargohni nozirlik xonalari bilan jihozlash tadbirlari amalga oshirilmagan. Dasturda yengil taksilar faoliyatini tartibga keltirish, ularning xizmatini yaxshilash masalasi ko‘zda tutilgan bo‘lsa-da, ushbu yo‘nalishga yetarlicha e’tibor berilmagan [17].

ISSN 3060-5059 (Online)

Shunday qilib, bu davrda o‘tkazilgan islohotlar va qabul qilingan qarorlar transport tizimini modernizatsiya qilish, aholiga sifatli transport xizmati ko‘rsatishga xizmat qildi. Transport sohasida faoliyat olib boruvchilarni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularning oylik ish haqi oshirildi. Shu bilan birga, sohada yo‘l qo‘yilgan ayrim kamchiliklar, infratuzilmaviy va tashkiliy muammolar yo‘lovchi tashish tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi.

XULOSA

Xulosamizga ko‘ra, Buxoro viloyatida 1991–2008-yillarda yo‘lovchi tashish tizimida o‘tkazilgan islohotlar hudud transport infratuzilmasining yangi iqtisodiy munosabatlar sharoitida o‘zgarishini aks ettirdi. Mazkur davrda transport sohasini monopoliyadan chiqarish, xususiylashtirish va raqobat muhitini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar yo‘lovchi tashish xizmatlarini tashkil etishning yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Ayniqsa, yo‘nalishlarni tender asosida taqsimlash, xususiy tashuvchilarning sohaga jalb etilishi transport xizmatlari bozorida raqobat muhitini shakllantirishga tashkiliy-huquqiy asos yaratdi.

Shu bilan birga, sohadagi ayrim tashkiliy va boshqaruv muammolari, mavjud iqtisodiy qiyinchiliklar transport sohasini modernizatsiya qilish va boshqaruv apparatining samaradorligini oshirish zarurligini ko‘rsatdi. Shu maqsadda viloyatda o‘tkazilgan chora-tadbirlar orqali kamchiliklarni bartaraf etish va tizimni zamon talablariga moslashtirish masalasi hududdagi transport siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Viloyatda yangi avtobus yo‘nalishlarining tashkil etilishi, zamonaviy rusumdagi avtobuslarning jalb qilinishi, avtoshohbekatlar va bekatlarning rekonstruksiya qilinishi transport infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qildi.

Umuman olganda, 1991–2008-yillarda Buxoro viloyatida yo‘lovchi tashish tizimida amalga oshirilgan islohotlar transport sohasining tashkiliy-iqtisodiy asoslarini qayta shakllantirishga xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gulmatov U. X. O‘zbekiston Respublikasida transport siyosati (1991–2023-yillar): tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025. – 55 b.
2. Jumaniyozov F. B. Xorazm transporti: shakllanishi, taraqqiyoti, muammolari: tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2021. – 52 b.
3. Hayotova N. Z. Buxoroda zamonaviy shahar madaniyati (1991–2021-yillar): tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2023. – 48 b.
4. Buxoro viloyati davlat arxivi (BVDA). – M-1459-fond, 1-ro‘yxat, 56-yig‘majild. – 312–313-varaqlar.
5. Buxoro viloyati davlat arxivi (BVDA). – M-1459-fond, 1-ro‘yxat, 76-yig‘majild. – 25–26-varaqlar.
6. Buxoro viloyati davlat arxivi (BVDA). – M-1459-fond, 1-ro‘yxat, 163-yig‘majild. – 83-varaq.
7. Trolleybus liniyasi uzayadi // Buxoronoma. – 1998-yil 26-avgust.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 26-noyabrdagi 513-son «O‘zbekiston Respublikasida shahar yo‘lovchi tashish transportini rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida»gi qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/uz/.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 21-avgustdagi 360-son «Transport sohasidagi faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida»gi qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/uz/.
10. Buxoro viloyati davlat arxivi (BVDA). – M-1459-fond, 1-ro‘yxat, 361-yig‘majild. – 132–133-varaqlar.
11. 59-raqamli yo‘nalish // Buxoronoma. – 2002-yil 8-may.
12. Transport va litsenziya // Buxoronoma. – 2003-yil 13-sentabr.
13. Vobkent tuman davlat arxivi. – M-272-fond, 1-ro‘yxat, 255-yig‘majild. – 58-varaq.
14. Buxoro viloyati davlat arxivi (BVDA). – M-1459-fond, 1-ro‘yxat, 485-yig‘majild. – 127-varaq.
15. Buxoro viloyati davlat arxivi (BVDA). – M-1459-fond, 1-ro‘yxat, 769-yig‘majild. – 30-varaq.
16. Buxoro viloyati davlat arxivi (BVDA). – M-1459-fond, 1-ro‘yxat, 533-yig‘majild. – 81–119-varaqlar.
17. Buxoro viloyati davlat arxivi (BVDA). – M-1459-fond, 1-ro‘yxat, 760-yig‘majild. – 1-varaq.